


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI



«TASDIQLAYMAN»

Toshkent tibbiyot akademiyasi
rektori v.v.b. Sh.A.Boymuradov

20 24 yil « 19 » 07

Ro‘yxatga olindi:

№

Bakalavriat

T.PR.-60910400 - 1.03; FT. -60910700 - 1.06;

BTM-60711100-1.02; MEN-60410800-8;

FR-60910800-1.03; OXI -60911200 - 1.13

DINSHUNOSLIK

O‘QUV DASTURI

(barcha ta’lim yo‘nalishlari uchun)

Toshkent–2024

Fan/Modul kodi DIN1104		O‘quv yili 2024/2025	Semestr 1-2	ECTS-Kreditlar 4
Fan/Modul turi Majburiy		Ta’lim tili O‘zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlar (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Dinshunoslik	60	60	120
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o‘qitishdan maqsad – talaba-yoshlar tafakkurida dinning mohiyati, dunyoning diniy manzarasi, diniy va falsafiy qarashlarning o‘zaro bog‘liqligi, globallashuv va diniy jarayonlar hamda zamonaviy diniy harakatlar, diniy aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizmning davlat va jamiyat xavfsizligiga salbiy ta’sirini bilish va unga qarshi kurashishda nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – diniy ta’limotlarning tarixi va rivojlanish bosqichlarini o‘rganish, dinning asl mazmuni bilan uning soxta talqinlarini farqlash malakasini shakllantirish; ekstremizm va terroizmning paydo bo‘lish sabablarini aniqlash va uning oqibatlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish; diniy va dunyoviy jarayonlarga tanqidiy tafakkur nuqtai nazardan yondashuvni shakllantirish; diniy aqidaparastlikning profilaktikasi va unga qarshi kurashda egallangan nazariy bilimlarni amaliy hayotda qo‘llash; talabaniq mustaqil ta’lim olishda egallangan bilimlardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Dinshunoslik faninig mohiyati va ahamiyati</p> <p>Din, dinshunoslik, din falsafasi, teologiya, teosofiya, xudojo‘ylik, diniy e’tiqod, aqida, ilohiyot tushunchalarining mohiyati va ularning fuqarolarning dunyoqarashi shakllanishiga ta’siri. Dinning funksiyalari va ijtimoiy ahamiyati. Diniy ta’limotlarda xudo va g‘ayritabiiy kuchlar haqidagi e’tiqodlar dinamikasi. Diniy e’tiqodlarning evolyutsiyasi: politeizm, genoteizm, monoteizm. Ibtidoiy e’tiqodlar, jahon dinlarining shakllanishi va o‘ziga xos jihatlari. Dinshunoslikning fan sifatida shakllanishi, predmeti, funksiyalari, kategoriyalari. Jamiyat taraqqiyotida din va diniy ta’limotlarning o‘rni. Dinlar paydo bo‘lishining geografik va xronologik tasnifi. Tirik va o‘lik dinlar.</p> <p>2-mavzu. Dinning qadimiy shakllari</p> <p>Diniy ong asoslarining shakllanishi. Diniy tushunchalarning hayoti va uning ijtimoiy munosabatlariga ta’siri. Totemizm. Animizm. Shamanizm. (magiya). Fetishizm. Insoniyatning dastlabki madaniyat o‘choqlari va ulardagi diniy tasavvurlarning xilma-xilligi. Qadimiy dinlar tarixini aks ettiruvchi manbalarning</p>			

turlari. Arxeologik topilmalar, etnografik materiallar.

3-mavzu. Milliy dinlar

Milliy dinlarning ta'rifi. Yahudiylik dinining tarixi va muqaddas matnlari, teologik asoslari va marosimlari. Buxoro yahudiylari jamoasining tarixi va e'tiqodidagi o'ziga xoslik. Upanishada, veda dinlari va hinduilik diniy ta'limotining o'ziga xos xususiyatlari. Konfutsiylik va Daosizm ta'limotlari tarixi va mohiyati. Yapon sintoiyligining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Tangrichilik e'tiqodi. Markaziy Osiyoda shakllangan e'tiqodlar va mifologik qarashlar. Zardushtiylik ta'limotining tarqalishi va hozirgi davrdagi elementlari.

4-mavzu. Buddaviylik dini tarixi va asosiy g'oyalari

Buddaviylik dinining paydo bo'lish tarixi, asosiy ta'limotlari, oqimlari va manbalari. Kushonlar imperiyasida buddaviylik dinining davlat dini darajasiga ko'tarilishi. An'anaviy buddaviylik. Tripitakan va buddaylikning muqaddas manbalari. O'rta asrlarda Dzen buddaviylik ta'limoti. Chan buddizmning Xitoy madaniy hayotiga ta'siri. Modern buddaviylikning o'ziga xos xususiyatlari. Global buddaviylik va uning yo'nalishlari. Hozirgi davrda buddaviylikning rivojlanishi. Tibetning buddaviylik maktabi va rohib Dalay Lamaning faoliyati. O'zbekistonda buddaviylik dinining tarixiy ildizlari va hozirgi zamon.

5-mavzu. Xristianlik dini tarixi va asosiy g'oyalari

Xristianlikning paydo bo'lishi, asosiy yo'nalishlari, ta'limotlari va manbalari. Katolitsizm va pravoslavlik dini yo'nalishlarining o'zaro farqli tomonlari. Protestantlik harakatining shakllanishi va rivojlanishi. Rim-katolik cherkovi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari. Sharqiy Yevropa pravoslavlik avtokefal cherkovlari. Anglikan, lyuteran va baptistlar cherkovlari. Hozirgi davrda xristian dinining rivojlanishi va dunyo davlatlaridagi o'rni. O'zbekistonda xristian dinining rivojlanishi tarixi va hozirgi zamon.

6-mavzu. Islom dinining tarixi va mohiyati

Islom dinining paydo bo'lishidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlar. Payg'ambarlik va vahiyning talqini. Dastlabki musulmonlar jamoasining tashkil topishi. Hijrat va Madinada tashkil etilgan ilk islom davlatida boshqaruv shakli. Tavhid aqidasi. Islom dinining besh arkoni. Xalifalikning tuzilishi va islom dini tarqalishining tarixi. Roshid xalifalar hukmronligi davridagi islohotlar mohiyati. Ummaviylar va abbosiylar hukmronligi davrida dinga munosabat. Islom oqimlari va yo'nalishlarining paydo bo'lish sabablari hamda oqibatlari. Movarounnahrda islom dinining tarqalishi va madrasa ta'limi shakllanishining ijtimoiy madaniy hayotga ta'siri. Hozirgi davrda islom sivilizasiyasining ahamiyati.

7-mavzu. Islom dini manbalari, aqidaviy maktablari va ularni bugungi kundagi ahamiyati

Qur'on, hadis, fiqh, aqida ilmlarining shakllanish tarixi. Qur'on, sura va oyat tushunchalarining ma'nosi, qur'onshunoslikning shakllanishi va rivojlanishi. Hadis tushunchasining mohiyati, hadislarning turlari va tasnifi. Buyuk muhaddislarning hayoti va ijodi. O'zbekistonda hadisshunoslikning rivoji. Musulmonlar e'tiqodidagi bo'linishlarning sabablari va oqibatlari. Ahli sunna va al-jamoa hamda shialik yo'nalishlarining paydo bo'lishi va ular e'tiqodidagi farqlar. Moturidiylik va

ash'ariylik maktablari. Kalom ilmining shakllanishi. Ilk aqidaviy adabiyotlarning islom dinining qabul qilinishidagi o'ri. Allohning zoti va sifatleri haqidagi g'oyalar. Esxatologiyaning mohiyati: qiyomat va oxirat dunyosi. Islomda imyon, taqdir, rizq tushunchlarining talqini. Noan'anaviy e'tiqodlar: xorijiya, mu'taziliya, qarmatiya harakatlari.

8-mavzu. Islom fiqhiy maktablari

Ilk islomiy fiqhiy maktablarning shakllanish tarixi va ularning tasnifi. Hanafiya, molikiya, shofe'iya, xanbaliya mazhablari va fiqhiy dalillash metodlari. Shariat kategoriyalari: halol, mandub, muboh, makruh, harom. Qozi mahkamalarining islom huquqini ta'minlashdagi o'ri. O'rta asrlarda fiqh ilmining rivojlanishida Movarounnahr faqihlarining o'ri. Burhoniddin Marg'inoniyning "Al-Hidoya" asarining fiqh ilmining rivojidagi ahamiyati.

9-mavzu. Tasavvuf ta'limotlarining Sharq musulmon madaniyatiga ta'siri

Tasavvuf ta'limotining shakllanish tarixi, mohiyati va asosiy g'oyalari. Tasavvuf ta'limotlarida Qur'ondagi nafs tarbiyasi, zuhd va zohidlikka oid g'oyalarining rivojlantirilishi. Tasavvuf ta'limotida ilohiy ishq g'oyasining rivojlantirilishi. Vahdatul vujud va vahdatush shuhud ta'limotlari. Ilk tasavvuf adabiyotlarining talqini. Islomda avliyo tushunchasining sharhi. Yusuf Hamadoniy ta'limoti, Kubroviya, Yassaviya va Naqshbandiya tariqatlarining ijtimoiy ahamiyati. Tasavvufning badiiy adabiyotga ta'siri. Ruhiiy tarbiya bosqichlari va maqom. Tasavvuf va hozirgi zamon. Zamonaviy tasavvuf tariqatlari.

10-mavzu. Yangi diniy ta'limotlar va sektalar

Islom va boshqa diniy aqidalar sinkretlashuvi natijasida shakllangan diniy ta'limotlar tarixi. Yangi diniy harakatlar paydo bo'lishining sabablari va yo'nalishlari. Bahoiylik va qodiyoniylik harakatlari. Xalqaro Krishnani anglash jamoasi faoliyati. Baxshillochilar jamoasi. Soxta xristianlik harakatlari. O'zbekistonda faoliyati kuzatilgan norasmiy diniy jamoalar. Sekta tushunchasining mohiyati va uning yo'nalishlari. Cherkov va sekta faoliyatidagi farqlar. Zamonaviy diniy sektalar va ularning barqaror taraqqiyotga salbiy ta'siri.

11-mavzu. Virtual makondagi missionerlik va prozelitizmning ijtimoiy-siyosiy xavfi

Kiber makon, kiber terrorizm, kiber zo'raonlik (cyberbullying) tushunchalarining mohiyati. Kiber makonda mafkuraviy tahdidlar. Internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda diniy targ'ibot usullari. O'zbek tilida faoliyat yurituvchi ekstremistik jamoa va shaxslarning ijtimoiy hayotga salbiy ta'siri. Hozirgi davrda virtual diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda xalqaro kuchlarni birlashtirishning ahamiyati. Missionerlik va prozelitizm tushunchasining mohiyati va rivojlanish bosqichlari. Xristian dini missionerligi va islom dini missionerligi. Xalqaro missionerlik tashkilotlari va ularning targ'ibot usullari. Missionerlik targ'iboti usul va vositalarning zamonaviylashuvi: Kiber makonda missionerlik va prozelitizmning targ'iboti va ularni bartaraf etish bo'yicha olib borilayotgan faoliyat dinamikasi. O'zbekistonda faoliyati kuzatilgan missionerlik harakatlari va ularning oqibatlari. Missionerlik va prozelitizmning ma'naviy barqarorlikga

tahdidi hamda uni oldini olishning mexanizmlari.

12-mavzu. Diniy fundamentalizm, radikalizm va terrorizmning tarixi va hozirgi zamon

Diniy fundamentalizmning tarixi va rivojlanish bosqichlari. Radikalizmning paydo bo'lishi sabablari va oqibatlari. Diniy radikalizmning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Diniy aqidaparastlik, ekstremizm kelib chiqishining ijtimoiy-tarixiy zaminlari va rivojlanishi. Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyati kuzatilgan diniy ekstremistik harakatlarning o'ziga xos xususiyatlari. Sog'lom va ma'rifiy mazmunga ega bo'lgan sof islomiy tushunchalarning g'arazli maqsadlarda talqin etilishi. Terrorizmning mohiyati va uning shakllari. Diniy shiorlar ostidagi terrorizm amaliyotining oqibatlari. Xalqaro terroristik guruhlar: Al-Qoida, ixvanul musulmin, ISHID, boko xaram tashkilotlarining dunyo hamjamiyati xavfsizligiga tahdidi, ularga islom tashkilotlari va musulmon ulamolari tomonidan berilgan raddiyalar. O'zbekistonda sodir etilgan terroristik harakatlar va ularning barqaror taraqqiyotga ta'siri: Turkiston islom harakati, akromiylar, soxta salafiylik, vahobiylik, xizbut tahrir va nurchilik harakatlari tarixi, maqsadlari, ularga islom tashkilotlari va musulmon ulamolari tomonidan berilgan raddiyalar. O'zbekiston davlat siyosatida radikal oqimlarga qarshi kurashning yo'nalishlari.

13- mavzu. O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy tashkilotlar

O'zbekistonning davlat sifatida shakllanishida din omili. Sovet O'zbekistonida diniy qarashlarga munosabatning asosiy jihatlari. O'zbekiston musulmonlar idorasining tashkil etilishi tarixi va ahamiyati. Xalqaro islom sivilizatsiyasi markazi va Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi faoliyatining maqsadi va vazifalari. Diniy tashkilotlarning zamonaviy dunyoviy me'yorlarga moslashuvi va jamiyat integratsiyasi va barqarorligini ta'minlashdagi o'rni. BMTning 72 sessiyasida diniy bag'rikenglik haqida rezolyutsiyani qabul qilish haqidagi taklifning ijtimoiy siyosiy ahamiyati. Dunyo mamlakatlari va O'zbekiston konstitutsiyasida vijdon erkinligi huquqining ifodasi. O'zbekistonda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqidagi qonunning qabul qilinishining tarixi va uning ahamiyati. Vijdon va e'tiqod erkinligining ta'rifi. Diniy ta'limotlarning vijdon erkinligiga munosabati. O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy konfessiyalarning tasnifi. Konfessiya tushunchasining mohiyati. O'zbekistonda konfessional jarayonlarning asosiy yo'nalishlari. Davlat va din munosabatlarini tartibga solishning tiplari. (Identifikatsion model, separatsion model va kooperatsion modellar).

14- mavzu. Insonning huquq va erkinliklari

“Inson”, “fuqaro”, “shaxs”, “indivud”, “subyekt” tushunchalarining mazmun mohiyati, ularning qonuniylik holati bilan chambarchas bog'liqligi. Shaxsning huquqiy maqomi tushunchasi: tarkibi va turlari. Fuqaroning maqomi, uning davlat bilan huquqiy aloqasi. Inson huquqlarining umumiy tavsifi va mazmuni. Shaxsiy huquq va erkinliklarning mazmuni va mohiyati. Siyosiy huquqlarning tarkibi, tushunchasi va turlari. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy huquqlarning tushunchasi, tarkibi, turlari.

Ayol huquqlari va ularning rivojlanish tarixi. Ayollarga nisbatan

diskriminatsiyaning har qanday shakllariga barham berish. Gender tengligini ta'minlash masalasi.

15-mavzu. Sog'liqni saqlash tizimida inson huquqlari va erkinliklarining ta'minlanishi

Sog'liqni saqlash huquqining asoslari. Sog'liqni saqlash huquqi va boshqa inson huquqlarining o'zaro bog'liqligi. Sog'liqni saqlash huquqini kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik tamoyili.

Sog'liqni saqlash huquqining xalqaro va milliy huquqiy me'yorlari. Sog'liqni saqlash huquqini ta'minlanishning asosiy tamoyillari: javobgarlik, tenglik va kamsitilmaslik, ishtirok etish. Sog'liqni saqlash huquqining muhim tarkibiy qismlari.

III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-mavzu: Dinshunoslik fanining mohiyati va ahamiyati.

2-mavzu: Dinning qadimiy shakllari.

3-mavzu: Milliy dinlar.

4-mavzu: Buddaviylik dini tarixi va asosiy g'oyalari.

5-mavzu: Xristianlik dini tarixi va asosiy g'oyalari.

6-mavzu: Islom dinining tarixi va mohiyati.

7-mavzu: Islom dini manbalari, aqidaviy maktablari va ularni bugungi kundagi ahamiyati.

8-mavzu: Islom fiqhiy maktablari.

9-mavzu: Tasavvuf ta'limotlarining Sharq musulmon madaniyatiga ta'siri.

10-mavzu: Yangi diniy ta'limotlar va sektalar.

11-mavzu: Virtual makondagi missionerlik va prozelitizmning ijtimoiy-siyosiy xavfi.

12-mavzu: Diniy fundamentalizm, radikalizm va terrorizmning tarixi va hozirgi zamon.

13-mavzu: O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy tashkilotlar .

14-mavzu: Insonning huquq va erkinliklari

15-mavzu: Sog'liqni saqlash tizimida inson huquqlari va erkinliklarining ta'minlanishi.

Seminar mashg'ulotlar mashg'ulotlar multimedia qurilmalari jihozlari bilan jihozlangan auditoriyalarda har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlarda faol va interfaol usullar qo'llaniladi. Tarqatma materiallar va axborotlar mul'timedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Markaziy Osiyo allomalarining islom ilmlariga qo'shgan xissasi va ularning ahamiyati esse tayyorlash.

2. Din va san'at mutanosibliği bo'yicha esse tayyorlash.

3. Din va axloq mavzusida esse tayyorlash (G‘azzoliyning “Tavba” asari asosida).
4. Din va hurfikrlilik (Berdyayevning diniy hurfikrlilik haqidagi g‘oyalari G‘azzoliy g‘oyalari qiyoslash).
5. Islomda inson huquqlari himoyasi, ijtimoiy tenglik, adolat va tolerantlik mavzusida krassvord tayyorlash.
6. O‘zbekistonda konfessiyalararo diniy bag‘rikenglikning tarixiy tajribasi mavzusida test tayyorlash.
7. Imom Buxoriyning “Al-Adab al-mufrad” asarining konspekt qilish.
8. Abu Homid G‘azzoliyning “Mukoshafatul qulub” asarining mazmuni yoritilgan esse tayyorlash.
9. Abdurauf Fitratning “Muxtasar islom tarixi risolasi” bo‘yicha krassvord tayyorlash.
10. Islomda inson huquq va erkinliklarini ta‘minlanishining o‘ziga xos jihatlari mavzusida 10 ta kazu tayyorlash.
11. Lev Tolstoyning “Iqornoma” asaridagi diniy e‘tiqodlar tahlil etish.
12. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning “Baxtiyor oila” asarida islom qadriyatlarining talqin etilishi referat tayyorlash
13. Islom huquqshunosligida oila, nikoh, taloq, idda, ziyor tushunchalarining ta‘riflash va esse tayyorlash.
14. Dalay-Lama XIV ning dinlararo muloqot madaniyatining rivojlantirishga qo‘shgan hissasi mavzusida referat tayyorlash.
15. Qohira deklaratsiyasi tarixi va mazmuni borasida tahlili maqola tayyorlash.
16. Imom Buxoriy va Imom Termiziyning hadis ilmiga qo‘shgan hissalarini qiyosiy tahlil qilish.
17. Mustaqillik yillarida Qur‘onning o‘zbek tiliga amalga oshirilgan tarjima va tafsirlari haqida taqdimot tayyorlash.
18. Yaqin Sharq mintaqasidagi ziddiyatli vaziyat sabablari tarixi haqida maqola tayyorlash.
19. M.Behbudiyning “Muxtasar islom tarixi” asarini tahlil etish va esse tayyorlash.
20. Islomda inson huquqlari himoyasi, ijtimoiy tenglik adolat va tolerantlik mavzusida krossvord tayyorlash.
21. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Vakili (Ombudsman)ning huquqiy maqomi.
22. BMT va inson huquqlari.
23. Inson huquqlari haqida xalqaro bill.
24. “Xabeas korpus Akt” va uning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga tadbiq etilishi.
25. Globallashuv jarayonlari va inson huquqlari.
26. Tibbiyotda inson huquqlari muhofazasi.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

- ayrim nazariy mavzularni o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil






	<p>o'zlashtirish;</p> <ul style="list-style-type: none"> - berilgan mavzular bo'yicha axborot (referat) tayyorlash; - berilgan mavzular bo'yicha prezentatsiyalar tayyorlash; - nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash; - ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tayyorlash va h.k. <p>Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:</p> <p>Fan bo'yicha mustaqil ish auditoriyadan tashqari o'tkaziladi.</p> <p>Talabalar tavsiya etilgan mavzulardan esse, referat, prezentatsiyalar va grafik organayzerlarini tayyorlab, o'qituvchiga darsdan tashqari bo'lgan vaqtda taqdim etadilar. Taqdim etilayotgan ishda mavzuning kimyoviy savollariga atroflicha ta'rif berilib, asosiy urg'u shu mavzuni tibbiyotdagi ahamiyatiga qaratilgan bo'lishi kerak. Bajarilgan ish dolzarbligi, yangi ilmiy ma'lumotlar saqlagan, animatsiya va videofilmlar bilan boyitilgan bo'lishi kerak.</p>
<p>3.</p>	<p>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • dinning mazmun-mohiyati hamda jamiyat va shaxs hayotidagi o'rni, diniy e'tiqodga ega bo'lgan insonlar dunyoni qanday tushunishlari, dunyoviy va dininiy bilimlarning mutanosibligi, din va fanning o'zaro aloqasi, diniy ta'lim va dunyoviy ta'limni maqsadlari haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)</i> • dinshunoslik fanini o'rganish orqali talabalar turli dinlarning mohiyati, ularning urf-odatlar va e'tiqodlari orasidagi farq va umumiylik, diniy va dunyoviy bilimlar jamiyatda insonlarning bag'rikengligi va o'zaro hurmatini tarbiyalashga yo'nalganligi, mahalliy, milliy va global kontekstdagi jahon dinlari, e'tiqodlari va urf odatlari an'analari, diniy-axloqiy g'oyalarning tahlili; din falsafasining asosiy tushunchalari: xudo, payg'ambarlar, inson, taqdir, oxirat, imon va h.z.; buddaviylik falsafasi va undagi harakat, osoyishtalik, substansiya, sifat, vaqt va o'zgaruvchanlik tushunchalari; xristian ta'limotidagi falsafiy ta'limotlar, pravoslav falsafasi, Katolik oqimida tomizm va neotomizm falsafasi. islom ta'limotiga oid qarashlar: sunniylik, shialik va xorijiylik, ularning yo'nalishi va mohiyati; kalom ilmiga oid falsafasining shakllanishi va mu'taziliylar maktabi munosabatlari; diniy fundamentalizm, ekstremizm, fanatizmni vujudga keltirgan manbalar va omillarni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi (ko'nikma)</i>; • din jarayonlarni mahalliy urf-odat, an'analardan kelib chiqqan holda tushunish, turli dinga ishonuvchilar va ishonmaydiganlar bilan umumiy murosa qilish, ular bilan muloqot qilish madaniyati; din nomi bilan sun'iy bog'langan ma'naviy tahdidlar, axborot xurujlariga karshi kurashish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak (malaka)</i>.
<p>4.</p>	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari</p>

	<ul style="list-style-type: none"> • Interfaol o‘yinlar; • Seminar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • Guruhlarda ishlash; • Taqdimotlarni kiritish; • Individual loyihalar; • Jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo‘yicha yozma yoki og‘zaki va test ishni muvaffaqiyatli topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Jalilov B. Dinshunoslik. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Noshir, 2019. 148 b. 2. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: OOO Complex print, 2020. – 198 b. 3. Kamilov D. Dinshunoslik. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Lesson Press, 2021. –128 b. 4. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik. – Toshkent, Navro‘z nashriyoti, 2019. – 264 b. 5. Raximdjanov D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2018. – 304 b. 6. Гилязиев З.З. Углубленное изучение истории и культуры Ислама. - Казан: Изд-во ДУМ РТ. 2009. 7. Jonathon A.C. Brown. hadith. -England, 2000. 8. Saifnazarov I., Sultonov T., Ilhomjonov L., Xalimmetova R. Dinshunoslik. O‘quv qo‘llanmasi. Toshkent: TDIU, 2019. – 180 b. <p style="text-align: center;">Qo‘shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 9. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. - Toshkent: O‘zbekiston.. 2017. 10. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017. 11. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yiligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017. 12. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017. 13. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Toshkent: O‘zbekiston, 2019.

14. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon. Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
15. А.Азами Введение в хадисоведение. Казань: 2011.
16. A.Fitrat. Tanlangan asarlar –Toshkent: Ma’naviyat, 2010. -301 b.
17. Abu Xomid G‘azzoliy Kimei saodat//Ikki dune saodatiga eltuvchi bilim. - Samarkand: Imom Buxoriy xalkaro markazi, 2019.
18. Islomov Z., Haydarov I. Xristianlik: ibodatxona, ibodat va marosimlari. – Toshkent: Qaqnus nashriyoti, 2020.
19. Farfiyev B. O‘zbekiston ijtimoiy taraqqiyotida islom ratsionalizm omili. Monografiya. – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2019.
20. G‘oyibnazarov Sh. Islom terrorizmga qarshi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2021.
21. Rumi J. Yetti majlis. -Toshkent: Yangi asr avlodi., 2019.
22. Rumi J. Masnaviy. 40 rivoyatga sharx. -Toshkent: Navruz, 2019.
23. Sayid Muxammad Hotamiy. Islom tafakkuri tarixi. -Toshkent: Minxoj, 2003.
24. O‘zbekiston falsafasi tarixi. Alikulov X. mas’ul muharrir, mualliflar jamoasi. -Toshkent: Noshir, 2013.
25. Xudoyberganov R. O‘lim va barhayotlikning falsafiy metodologik tahlili. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
26. Yassaviy Xoja Axmad Devoni hikmat. -Toshkent: Navro‘z, 2018.
27. Ledewitz B. Hallowed Secularism Theory, Belief, Practice. Palgrave Macmillan. – New York., 2009.
28. Jaspers. The origin and goal of history. New Haven and London. Yale University Press. 1965. P – 77. (P – 19).
29. K. S.Guttenplan. J.Hornsby. C. Janavay. Reading philosophy. Blackwell Publishers Ltd. UK. 2003. R – 341.
30. David L. McMahan. The Making of Buddhist Modernism. – Oxfordshire: “Oxford University Press”, 2008.
31. Todd M. Johnson. Religious Adherents of the World by Continent and Region // Religions of the World: A Comprehensive Encyclopedia of Beliefs and Practices / J. Gordon Melton, Martin Baumann. – Oxford, England: “ABC CLIO”, 2010.
32. O‘zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar // Masul muharrir A.X.Saidov. – T., Adolat, 2002.
33. Saidov A.X. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq. – T., 2006.
34. Yuldasheva G., Maxamatov M. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlarini himoya qilishning milliy tizimi. O‘quv qo‘llanma. – T., TDYuI, 2008.

Internet manbaalari:

35. www.ziyonet.uz
36. www.edu.uz.

	<p>37. www.google.uz.</p> <p>38. www.gov.uz.</p>
7.	<p>Fan/Modul uchun mas'ullar:</p> <p>S.D. Norqulov - TTA Ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri, f.f.d., professor.</p> <p>D.T. Norqulov - TTA Ijtimoiy fanlar kafedrası professori, falsafa fanlari doktori.</p> <p>F.S. Atamuratova - TTA Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, f.f.n.</p>
8.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>Ichki taqrizchi:</p> <p>U.M. Abilov - TTA Ijtimoiy fanlar kafedrası professori, falsafa fanlari doktori.</p> <p>Tashqi taqrizchi:</p> <p>Sh.O. Madaeva - O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti "Falsafa tarixi va mantiq" kafedrası mudiri, falsafa fanlari doktori.</p>
9.	<p>Fanning o'quv dasturi Toshkent tibbiyot akademiyasining <u>19.07.2024</u> dagi <u>03880</u> -sonli buyrug'i (buyruqning <u>1</u> -ilovasi) bilan tasdiqlangan.</p> <p>O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X. Azizova</p> <p>1-son davolash fakulteti dekani  I.O. Otajonov</p> <p>2-son davolash fakulteti dekani  A.A. Imnazarov</p> <p>Pediatrica, stomatologiya, xalq tabobati, tibbiy pedagogika va surdotarjimonlik fakulteti dekani  A.A. Xamrayev</p> <p>Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotobbiyot va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti dekani  S.U. Aliyev</p> <p>Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi, ekologiya va atrof muhit muhofazasi va kimyo fakulteti dekani  F.I. Salomova</p>